

SOG'LOM VA FAOL HAYOT TARZINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALARNING O'RNI

Ibragimova Nazokatxon Qaxramonjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16911330>

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga faol qatnashishi masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida turizmning o'rni tobora muhimlashib bormoqda, chunki turizm nafaqat madaniy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga, balki yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turizmning didaktik tamoyillari o'quv jarayonida yoshlarning intellektual, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning asosida turizmning yoshlarni tarbiyalashdagi pedagogik imkoniyatlarini to'g'ri tushunish va unga mos ravishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish yotadi.

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Ma'lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o'quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi.

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida motivatsiya omilining o'rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo'lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e'tiborni qaratish lozim. **Jumladan har bir shaxsda:**

- sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;
- sog'lom turmush tarzida yashashning insonni sog'lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat'iy ishonchning bo'lishi;
- sog'lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo'lishi kabilar kiradi.

Shu bilan birga, turizmning yoshlar tarbiyasiga ta'siri, didaktik tamoyillarning pedagogik faoliyatga integratsiyasi va o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari hali to'liq o'rganilmagan va keng miqyosda tahlil qilinmagan. Mazkur maqolada turizmning didaktik tamoyillari va uning yoshlar tarbiyasiga ta'siri masalalari chuqur o'rganilib, turizm faoliyatining pedagogik jarayonlardagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Xulosa: Turizmning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini amaliy jihatdan baholash uchun turizm sohasidagi muvaffaqiyatli pedagogik amaliyotlar, tajribalar va global tendensiyalar o'rganildi. Bu metod yordamida turizmni yoshlar tarbiyasiga qo'llashda muvaffaqiyatli yondashuvlar va metodikalar aniqlangan.

Boshqaruv va monitoring metodi: Turizm faoliyatining yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'lchash uchun monitoring tizimi ishlab chiqildi. Bu metod yoshlar guruhining turizmga qatnashish darajasi, olingan bilimlar va ko'nikmalarni baholashga yordam berdi.

Komparativ tahlil metodi: Turizmning didaktik tamoyillari va yoshlar tarbiyasiga ta'sirini taqqoslash maqsadida, turizmning turli turlarida qatnashgan yoshlarning tarbiyaviy tajribalari taqqoslandi. Bunda, turizmning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy ta'siri yuzasidan o'rtacha ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Bu metodik yondashuvlar orqali turizmning didaktik tamoyillari yoshlar tarbiyasiga qanday ta'sir qilishi, o'quv jarayonida uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari haqida keng qamrovli ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. Turizm va uning yoshlar tarbiyasiga ta'siri sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar mavjud. Bu adabiyotlar turizmning didaktik tamoyillari, pedagogik yondashuvlar va yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agayev, X. A. (2019). Global fuqarolik va turizm. [Publisher].
2. Kremen, V. A., & Vashchenko, N. K. (2015). Pedagogik didaktika. [Publisher].
3. Tregubova, L. R. (2017). Turizm va madaniy almashinuv. [Publisher].
4. Yermolova, S. A., & Fedorova, E. A. (2016). Pedagogika va turizm. [Publisher].
5. Baranov, M. S. (2018). Turizm va yoshlar tarbiyasi. [Publisher].